

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA KAPITAL RENTABELLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR**

*Do'smuxamedova N.X*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi*

*Toshpulatov D.J*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 3- kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada tadbirkorlik faoliyatining rentabelligi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini aniqlash uchun sof foyda rentabelligi, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi kabi moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Maqolada ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash usullari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda korxonaning rentabellik darajasini oshirish uchun tavsiyalar berilgan. Tahlil jarayonida tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy holatini baholash metodlari, strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish yo'llari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, rentabellik, moliyaviy tahlil, sof foyda, aktivlar, kapital, iqtisodiy samaradorlik.

### **INDICATORS EXPRESSING THE RETURN ON CAPITAL IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES**

**Annotation.** This scientific article analyzes the profitability of entrepreneurial activities and the indicators that express it. To determine the efficiency of entrepreneurial activities, financial indicators such as net profit profitability, asset profitability, and return on capital are used. The article provides methods for calculating these indicators, their impact on economic efficiency, and recommendations for increasing the profitability of the enterprise. In the process of analysis, methods for assessing the financial condition of entrepreneurial activities and their use in making strategic decisions were considered.

**Keywords:** entrepreneurship, profitability, financial analysis, net profit, assets, capital, economic efficiency.

### **ПОКАЗАТЕЛИ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ОТДАЧУ КАПИТАЛА В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Абстрактный.** В данной научной статье анализируется рентабельность предпринимательской деятельности и ее показатели. Для определения эффективности деловой деятельности используются такие финансовые показатели, как чистая прибыль, рентабельность активов и рентабельность капитала. В статье представлены методы расчета этих показателей, их влияние на экономическую эффективность, а также рекомендации по повышению рентабельности предприятия. В ходе анализа были рассмотрены методы оценки

финансового состояния предпринимательской деятельности, способы их использования при принятии стратегических решений.

**Ключевые слова:** предпринимательство, рентабельность, финансовый анализ, чистая прибыль, активы, капитал, экономическая эффективность.

### **Kirish**

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyatning samaradorligini baholashda rentabellik ko'rsatkichlari katta ahamiyatga ega. Rentabellik korxonaning foyda olish qobiliyatini, iqtisodiy barqarorligini va umumiy moliyaviy holatini aks ettiradi. Bu ko'rsatkichlar tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy tahlilni o'tkazish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarida asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari moliyaviy tahlilda muhim rol o'ynaydi. Bu ko'rsatkichlar orqali korxonaning umumiy iqtisodiy holati, foyda olish qobiliyati va aktivlardan foydalanish samaradorligi aniqlanadi. Tadbirkorlik faoliyati rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga, mahsulot rentabelligi, xarajatlar rentabelligi kabi umumlashgan ko'rsatkichlar kiradi. Bundan tashqari rentabellikni baholash uchun quyidagi turlari ham mavjud:

- Sof foyda rentabelligi: Bu ko'rsatkich korxonaning sof foydasining umumiy daromadga nisbati orqali aniqlanadi. U korxonaning mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarishdagi rentabelligini ko'rsatadi.
- Jami aktivlar rentabelligi (ROA - Return on Assets): Bu ko'rsatkich korxonaning jami aktivlari orqali qancha foyda olinayotganligini aks ettiradi va korxonaning aktivlaridan foydalanish samaradorligini baholashda ishlatiladi.
- O'z kapital rentabelligi (ROE - Return on Equity): Korxonaning o'z kapitalidan qanday foydalanayotgani va qanchalik samarali foyda olayotganligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich investorlar uchun juda muhim, chunki ular korxonaning aksiyalaridan olinadigan daromadni baholashlari mumkin.
- Investitsiya rentabelligi (ROI - Return on Investment): Bu ko'rsatkich investitsiyalar samaradorligini ko'rsatadi. U investitsiyalar natijasida olingan foydaning investitsiya qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining mahsulot yoki ishlab chiqarish rentabelligi yuz so'm mahsulotga to'g'ri keladigan sof foyda summasining miqdorini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin:

$$R_m = \frac{s_f}{M} \times 100$$

Bunda:  $R_m$  - mahsulot rentabelligi;

$s_f$  - sof foyda;

$M$  - mahsulotning umumiy hajmi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqlanish yo'llari bir hil saqlanib qolgani bilan ularning mazmuni tubdan o'zgargan. Buni tadbirkor faoliyati xarajatlari rentabelligi bo'yicha ham ko'rishimiz mumkin.

Xarajatlar rentabelligini ( $R_{xa}$ ) aniqlash uchun sof foyda summasini xarajatlarning umumiy qiymati ( $X_a$ ) bo'lishi lozim:

$$R_{xa} = \frac{S_f}{X_a} \times 100$$

Ushbu ko'rsatkichning iqtisodiy mazmunida ayrim o'zgarishlar mavjud. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida xarajatlar davlatniki edi. Agar korxona zarar bilan ishlasa ham bu zarar davlat hisobidan qoplanganligi uchun mazkur ko'rsatkichning ahamiyati unchali yuqori bo'lmagan. Endilikda esa, mazkur ko'rsatkich tadbirkorning har 100 so'm qilgan xarajatiga qancha foyda olayotganligini ifodalaydi. Endi zarar davlat hisobidan emas, balki shu tadbirkor hisobidan qoplanadi. Agar uning shu zararni qoplash imkoni bo'lmasa mazkur ob'yekt bankrotlikga uchrab o'z faoliyatini to'xtatishga majbur. Bu esa tadbirkor uchun butun faoliyati to'xtadi degan gap. Shu holatga tushmaslik uchun qilingan xarajatlari qanday qoplanayotganligini bilishi uchun mazkur ko'rsatkichni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari tadbirkor xar bir faoliyati va kategoriyalari rentabelligini ham ta'minlab borishi lozim. Bu bozor munosabatlarning muhim talablaridan biridir.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati aktivlari rentabelligi ham bozor munosabatlari sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida korxonaning foydasi bilan undagi mavjud aktivlar bir biriga bog'liq ravishda o'rganilmas edi. Ammo bozor munosabatlari sharoitida mavjud aktivlardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Tadbirkorlik mahoratiga Anri Fayolning ta'rif keltirishicha: "Boshqarish – xo'jalik yurituvchi subyektda mavjud bo'lgan barcha resurslardan maksimal darajada foydalangan holda, xo'jalik yurituvchi subyektning maqsadlari sari yetaklashdir". Ko'rinib turibdiki korxona egasi uchun ularning mavjudligidan ko'ra samarali foydalanish muhimdir. Shu tufayli mavjud aktivlarning bir yillik qiymatiga qancha foyda summasining to'g'ri kelishi hisoblanadi va tahlil qilinadi. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_a = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{O'rta aktivlar}} \times 100\%$$

Ushbu ko'rsatkich korxona egasiga mavjud aktivlarning o'rta hisobda qoplanish muddatini ifodalaydi. Masalan, hisobot yilida aktivlar rentabelligi 5% ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, mavjud aktivlar samaradorligi shu holda saqlanib qolsa uning qiymati 20 yilda ( $100/5$ ) to'la qoplanar ekan.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy salohiyatning bir qismi korxonaning moddiy boyligi, ya'ni asosiy va aylanma mablag'lardan iborat bo'lsa bir qismi uning nomoddiy boyligidan va mehnat salohiyatidan tarkib topadi. Shu tufayli bu

ko'rsatkichning rentabelligi oldingi rentabellik ko'rsatkichini to'ldiradi. Bu ko'rsatkichni quyidagi formula orqali ifodalashimiz mumkin:

$$R_{ich} = \frac{S_f}{As_k + Ay_k} \times 100$$

Bunda:  $R_{ich}$  - Ishlab chiqarish rentabelligi;

$As_k$  - asosiy kapital;

$Ay_k$  - aylanma kapital.

Bu formulada, biz nimani o'rganishimiz kerak. Iqtisodiy salohiyat rentabelligining hajmi yuz so'm iqtisodiy salohiyatga to'g'ri keladigan foyda miqdorini ifodalaydi. Bu qancha ko'p bo'lsa korxona uchun shuncha yaxshi, chunki u iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi. Shu tufayli iqtisodiy salohiyatning rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichni korxonaning biznes rejasiga asosiy ko'rsatkich sifatida kiritish va uning holatini nazorat va tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Bizning bilishimiz bo'yicha, iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkich-bu rentabellikning umumlashgan ko'rsatkichidir. Uning hajmini ham oshirish, ichki imkoniyatlarini axtarib topish uchun alohida qismlarini o'rganishni, tahlil qilishni taqozo qiladi. Bunday ko'rsatkichlarga asosiy va aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar va mehnat salohiyati rentabelligi kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik sub'yektlari asosiy vositalarning rentabelligi ( $R_{av}$ ) uning yuz so'mlik o'rtacha qiymatiga to'g'ri keladigan foyda summasi ( $S_f$ ) bilan ifodalanadi. Quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$R_{av} = \frac{S_f}{\Delta Av} \times 100$$

Bunda:  $\Delta Av$  - asosiy vositalarning o'rtacha qiymati.

Ushbu ko'rsatkichning hajmi qancha yuqori bo'lsa korxona uchun o'shancha yaxshi, chunki uning mablag' bilan qoplanish muddati shuncha tez bo'ladi. Biz bilamizki asosiy vositalar qancha tez aylanib tursa, uning moddiy asosi foyda ko'payishi orqali yaratilsa, korxona uchun o'shancha yaxshi.

Tadbirkorlik sub'yektlarida ya'na bir asosiy ko'rsatkichlardan biri, aylanma mablag'lar rentabelligidir. Aylanma mablag'lar rentabelligi ( $R_{aym}$ ) sof foydani ( $S_f$ ) uning o'rtacha qiymatiga ( $Aym$ ) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$R_{aym} = \frac{S_f}{Aym} \times 100$$

Agar aylanma mablag'lar yetarli bo'lmasa tadbirkorlik sub'yektlarida ilg'or texnologiyaning va yuqori malakali kadrlarning mavjudligi hech samara bermasligi mumkin. Iqtisodiy jarayonning sodir bo'lishi uchun korxona iqtisodiy salohiyatning ko'rib chiqilayotgan barcha qismlari bo'lishini taqozo qiladi. Shu tufayli aylanma mablag'lar rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichni korxona faoliyatini baholashga

kiritish ham, muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa korxona uchun shuncha yaxshi, chunki aylanma mablag'larni qoplash uchun olingan moliyaviy resurslarning qaytishini tez ta'minlaydi. Shu tufayli iqtisodiy ishda aylanma mablag'lar rentabelligini aniqlash, tahlil qilish va mavjud ichki imkoniyatlarni topib uni oshirish chora tadbirlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega, chunki oborotga qo'yilgan mablag'lar qancha tez aylansa, ular ko'proq samara bersa korxona shuncha to'lovga qodir, raqobatga chidamli, moliyaviy barqaror bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati rentabelligini ifodalovchi yana bir qancha ko'rsatkichlar mavjud. Bu ko'rsatkichlarni misollar orqali ko'rib o'tamiz.

Tadbirkorlik faoliyatida rentabellikni oshirish yo'llarini ko'rib chiqamiz. Rentabellikni oshirish uchun quyidagi strategik choralar ko'rilishi mumkin:

- Mahsulot assortimentini kengaytirish: Yangi mahsulotlar yoki xizmatlar ishlab chiqarish orqali daromadni oshirish.
- Marketing strategiyasini kuchaytirish: Samarali reklama kampaniyalari orqali sotuv hajmini oshirish.
- Xarajatlarni kamaytirish: Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va resurslarni samarali boshqarish orqali xarajatlarni qisqartirish.
- Avtomatlashtirish va texnologiyalarni joriy qilish: Zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali rentabellikni oshirish mumkin.
- Investitsiyalarni jalb qilish: Korxonaning faoliyatini kengaytirish uchun yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy holatni mustahkamlash.

### **Xulosa**

Rentabellik ko'rsatkichlari tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini baholash uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonaning foyda olish qobiliyatini, moliyaviy barqarorligini va umumiy rivojlanish darajasini baholashga yordam beradi. Rentabellik tahlili natijalari asosida korxona boshqaruvchilari samaradorlikni oshirish uchun zarur strategik qarorlar qabul qilishlari mumkin. Samaradorlikni oshirish uchun esa xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish va raqobatbardoshligini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. G'ulomov S. Sh. "Tadbirkorlik iqtisodiyoti". Toshkent: Moliya, 2023.
3. Rustamov A. M. "Moliyaviy menejment". Toshkent: O'zbekiston universiteti nashriyoti, 2021.
4. Abdukarimov U. B. "Korxona moliyaviy tahlili". Toshkent: Iqtisodiyot va statistika, 2022.
5. Abdullayev R. N. "Investitsiyalarni boshqarish". Toshkent: Iqtisodiyot va texnologiyalar, 2020.
6. Dosmukhamedova N.X. (2024). Green economy: uzbekistan's role in sustainable development strategy. Technical science research in Uzbekistan, 2(7), 52-55.